

**O'SMIR QIZLAR O'RTASIDA SHAXSLARARO MUNOSABATLARDAGI
MUAMMOLARNI OLDINI OLISH VA IJOBIY MUHITNI TASHKIL QILISH**

Raximova Dilnoza G'ulomovna

*Xorazm viloyati Xonqa tumani maktabgacha va maktab
ta'limi bòlimiga qarashli 36-sonli umumiy òrta ta'lim
maktabining amaliyotchi psixoligi*

Annotatsiya: *Ushbu maqolada o'smir qizlarning bir-biriga bo'lgan o'zaro munosabatlarida kelib chiqadigan jiddiy muammolar va ularni bartaraf etish va oldini olish masalalari tog'risida so'z boradi. Shuningdek, o'smir qizlarning ta'sir qilish tabiati va obyektiv ravishda namoyon bo'ladigan atrofdagi odamlar o'rtasidagi munosabatlar, bir-birini idrok etishi va baholashi mumkin bo'lgan munosabatlar, yo'nalishlar, kutishlar, stereotiplar va boshqa moyilliklar tizimi ochib berilgan. Ushbu muammolar o'smir qizlarning maqsadlari, qadriyatlar va birgalikdagi faoliyatni tashkil etish bilan bog'liq bo'lib, ularni shakllantirish uchun asos bo'lib xizmat qiladi.*

Kalit so'zlar: *psixologik ta'sir, adekvatlik, identifikatsiya, hissiy komponent, empatiya, muloqot*

O'smir qizlar o'rtasidagi munosabatlar psixologik, ijtimoiy va shaxsiy sohalar bo'lib, ularning samarali hal qilinishi muhimdir. Bu muammolarni o'rganish va hal qilish uchun keng ko'lamlı tajribalar va tushunchalar talab qilinadi. O'smir qizlar o'rtasidagi munosabatlarni tahlil qilish uchun bu masalada kelib chiqqan muammolarni tahlil qilish muhimdir. Bu muammolarni aniqlash va ularning sabablarini tushunishga yordam beradi. Qizlar bilan o'g'il bolalarning oilaviy ustanovkalarida o'zaro tafovutlar mavjud bo'lishi mumkinligi ko'pgina ilmiy tadqiqotlar natijalariga ko'ra isbotini topgan. Masalan, gender tafovutlarini aniqlashga bag'ishlangan bunday natijalarni rus va amerikalik olimlarning ilmiy izlanishlarida kuzatish mumkin. Devid Mayersning fikricha, jinsiy tafovutlar yoshlikdanoq namoyon bo'la boshlaydi. Xususan, o'g'il bolalar mustaqillikka, qizlar esa o'zaro bog'liqlikka intiladilar. Shuning uchun ham o'smir o'g'il bola o'z oilasida ko'proq mustaqillikka ega bo'lgan, lozim bo'lganda ochiq agressiya namoyon qila oladigan otaga taqlid qiladi; qiz bola esa hissiy-emotsional psixologiya sohabasi bo'lgan onasiga yaqinroq bo'lishga harakat qiladi. Natijada oiladagi bunday o'ziga xos munosabatlar o'smirlarga xos xarakter xususiyatini tez va aniq ilg'ash imkoniyatini yaratadi. Shu bois ham, Judit Xoll o'z tadqiqotlari orqali, aynan, qiz bolalar atrofdagilarning emotsional

holatlarini yaxshiroq tushuntirib bera olishi, ulardagi empatiya hissining kuchliroq rivojlanganligini ko'rsatuvchi dalil ekanligini isbotlagan edi. Shunday qilib, o'smirlik yoshidagi o'g'il bolalar va qizlarning nizolar to'g'risidagi ijtimoiy tasavvurlarini bilish, oilaviy munosabatlar xarakterini ustanovkalar orqali o'rganish natijalarini ko'rsatishicha, bu eng avvalo, tarbiyalanayotgan oiladagi ma'naviy-psixologik muhitga bog'liq ekan. Masalan, oilaviy munosabatlar sharoitida sog'lom, demokratik tamoyillarga asoslangan qarashlar ustun bo'lgan oilalardagi bolalarning ustanovkalari hamda nizolari to'g'risidagi tasavvurlari alohida xususiyat kasb etadi. O'smir qizlar o'rtasidagi shaxsiy munosabatlardagi muammolarning bir qismini quyidagi ko'rinishlarda ko'rsatish mumkin:

1. Kommunikatsiya: Bir qancha o'smir qizlar kommunikatsiya ya'ni shaxslar bilan muomala qilish borasida ko'plab to'siq va muammolarga duch kelishmoqda. Ba'zilar esa o'zlarini yaxshi ifodalashdagi qiyinchiliklardan aziyat chekishyapti yoki ular faqat o'zlari uchun tushunarli bo'lgan doiralarda munosabat o'rnatmoqdalar.

2. Do'stona munosabatlar: Ba'zida o'smir qizlarga do'stona munosabatlarni barqaror saqlash katta qiyinchiliklar tug'diradi. Ularning do'stlari bilan o'zaro munosabatlarini rivojlantirish uchun yechimlar toppish hozirgi kunda dolzarb hisoblanadi.

3. To'qimalarga ishonish: Ba'zi o'smir qizlar munosabatlarda va hayotda o'zlari tasavvur qilgan to'qima hayot bilan real hayotni chalg'itib yuborishadi, ya'ni o'zlarini o'zlaridan yashirishadi. Bu o'z navbatida real hayotdan sovishga, butun olamni faqat oq va qora ranglarda tasavvur qilishga olib keladi.

4. Empatiya: Boshqa insonlarning tajribalarini va his-tuyg'ularini tushunishga qodir bo'lish. Empatiya kuchi juda muhimdir. Ba'zida o'smir qizlar empatiya kuchini rivojlantirishda qiyinchiliklarga duch keladilar.

5. Konfliktlar: O'smir qizlar o'rtasida konfliktlar ya'ni ziddiyatlar paydo bo'lishi odatiydir, ammo ularni samarali hal qilish va yechim topish ko'rsatkichi juda muhimdir. Bu muammolarga asosiy muammolar sifatida qarash va ularni hal qilishda yordam berish kerak. Har bir o'smir qizlarda shaxslararo munosabatlarni rivojlantirish uchun maxsus yo'llarni va harakatlarni aniqlash va qo'llash juda muhimdir.

Muammolarni bartaraf qilish uchun ijobiy yo'llarni ko'rsatish kerak. Masalan, kommunikatsiya, samimiy suhbatlashish va do'stona maslahatlar berish, maslahatlashish va hal qilish jarayonida yordam berishi mumkin. O'smir qizlar munosabatlari uchun empatiya kuchi muhimdir. Empatiya bu - o'z xissiyotlari, hislari, va holatlari bilan o'zaro tushunarli munosabatlarni

o'rnatishga qodir bo'lishni anglatadi. Bu, boshqalarning his-tuyg'ularini tushunish, ularga qo'shilib fikrlash va ularni qo'llab-quvvatlashni o'z ichiga oladi. Boshqalar bilan munosabat o'rnatish va ularning o'zlarini tushunish uchun empatiya ko'rsatish muhim ahamiyatga egadir. O'smir qizlarning shaxslararo munosabatga kirishishlarida kommunikatsiya mahorati katta rol o'ynaydi. O'smir qizlar o'rtasidagi shaxslararo munosabatlarda muvaffaqiyatli bo'lish uchun bir-birlarini qo'llab-quvvatlash muhimdir. Ular uchun ko'p vaqtni birgalikda o'tkazish, bir-birlarini tushunish, qiyin vaziyatlarda bir-birlariga ko'maklashish va ularni qo'llab-quvvatlash katta ahamiyat kasb etadi. Maqolada bu va boshqa asosiy tushunchalar boyicha to'liqroq ko'rsatilgan tahlil va tavsiyalar mavjud. O'smir qizlar o'rtasidagi shaxsiy munosabatlardagi muammolarni oldini olish uchun bir nechta yechimlar mavjud:

1. Kommunikatsiya mahorati: O'smir qizlar o'rtasidagi munosabatlarni kuchaytirish uchun kommunikatsiya ya'ni muloqot qilish mahorati muhimdir. Samimiy suhbatlar va bir birlarini tushunishga erishish muammolarni bartaraf qilishda yordam berishi mumkin.

2. Empatiya: Bir-birlarining hislari va tajribalari bilan o'zaro bog'liqlikni tushunish uchun empatiya kuchi kerak. Bu ziddiyatli va muammoli holatlarda qo'llab-quvvatlash uchun katta ahamiyatga ega. Empatiya-insonlarning bir-birlarining qiyinchiliklarini, xursandliklarini va hamma narsalarini qanday his qilishini tushunishga va boshqalar bilan o'zaro munosabatlarda ehtirom bilan ishtirok etishga yordam beradi.

3. Maslahatlashish: Muammolarni hal qilish uchun boshqa insonlar bilan maslahatlashish juda muhimdir. Maslahatlashish bir-birini qo'llab-quvvatlash, yordam berish va yechim topish uchun birgalikda ishlash imkoniyatini yaratishga yordam beradi.

4. Sabr: O'smir qizlar o'rtasidagi munosabatlarda sabrli bo'lish muhimdir. O'smir qizlarni muammolar hal qilinishi va munosabatlar o'zgarishishi uchun sabr va ihtiyotkorlik bilan ishlashga o'rgatish lozim.

5. O'zgaruvchanlikka moslashish: O'smir qizlar o'rtasidagi munosabatlarda o'zgaruvchanlikka moslashish muhimdir. Zamonaviy muammolar va talablar asosida o'zgarishlarga tayanish, muammolarni hal qilish jarayonida dastlabki xatolaridan xulosa chiqarib, har qanday vaziyatlarga ham moslashish zarur.

Bu ilmiy maqola o'smir qizlar o'rtasidagi munosabatlardagi muammolarni tushunish va ularni ijobiy tarzda hal qilishda yordam beradi, shuningdek, o'smir qizlarning boshqa insonlarni qo'llab-quvvatlash va bir-birlari bilan o'zaro munosabatlarni kuchaytiradi. O'smir qizlar o'rtasidagi shaxsiy munosabatlardagi muammolar, ularning o'z xissiyotlari, ijtimoiy

faktorlar va psixologik tajribalari asosida o'zgaruvchanlikni ko'rsatadi. Bu muammolar o'smir qizlarning boshqa insonlar bilan munosabatlarni o'rganish, tushunish va rivojlantirish jarayonida dolzarb ahamiyatga ega. Shunday qilib, o'smir qizlar o'rtasidagi shaxsiy munosabatlardagi muammolarni oldini olish va ijobiy muxitni tashkil qilish, ijtimoiy va psixologik o'zgarishlarni tushunish va ularni bartaraf qilish hozirgi davr uchun muhimdir. Bu maqolada, o'smir qizlar o'rtasidagi munosabatlardagi muammolarni tahlil qilish, ularni tushunish va hal qilish uchun ijobiy yo'llar va yechimlar ko'rsatildi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Madumarov Talatbek Tolibjonovich, & Gulomjonov Odiljon Rahimjon o'g'li. (2021). PREREQUISITES FOR THE DEVELOPMENT OF A LEASING MECHANISM IN PUBLIC - PRIVATE PARTNERSHIP. International Engineering Journal For Research & Development, 6(SP), 5. <https://doi.org/10.17605/OSF.IO/7MXR3>
2. Abdullayev Akmal Nasriddinovich (2020). THE FEATURES OF APPEARING FAMILY IN MODERN SOCIETY. European science review, (3-4), 69-72.
3. G`oziev E.G. Umumiy psixologiya. Toshkent. 2002.1-2 kitob.
4. G`oziev E.G. Muomala psixologiyasi. T-2001.
5. Vedenskaya L.V, Pavlova L.A. Delovaya retorika: uchebnoe posobie dlya vuzov.- M.:IKS "MarT", 2004-512 b.
6. Nemov R.S. Prakticheskaya Psixologiya Poznanie sebya: Vliyanie na lyudey:Posobie dlya uch-sya-M:Gumanit. Izd.Sentr VLADOS, 2003, - 320 b.
Internet farmog'idagi veb-saytlar ro'yxati:
7. www.expert.psychology.ru
8. www.psycho.all.ru